

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Pedagogika va psixologiya fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarida o‘zbek tilini o‘rgatishga oid SI (sun’iy intellekt)ga asoslangan dasturiy ta’minotining yangi avlodini yaratish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: O‘zbek tilining morfologik murakkabligi (agglutinativ tuzilma, affikslar sonining ko‘pligi, fonetik assimilyatsiyalar, morfofonologik o‘zgarishlar) AI-modellarni maxsus lingvistik korpuslar tayyorlashni, o‘zbek tili uchun yirik annotatsiyalangan lingvistik korpus, LLM-larni tilga moslashtiruvchi datasetlar, multimodal talaffuz tahlili modellarini ishlab chiqishni talab qiladi. Loyiha natijasi sifatida sun’iy intellektga asoslangan nutq bilan ishlash texnologiyasi (NLP) yordamida interaktiv o‘zbek tili darslarini tashkil etish bo‘yicha adaptiv SI tizimiga ega dasturiy ta’minotining yangi avlodi yaratiladi. Bunda talaffuz, grammatika va so‘z boyligi (lug‘at) bo‘yicha individual fikr-mulohaza (feedback) berish (ta’lim oluvchining bilim darajasini real vaqt rejimida baholaydigan AI diagnostikasi), o‘qituvchilarga dars rejalashtirish va o‘quvchilarning yutuqlarini kuzatishda yordam berish, raqamli ta’lim platformalarini dasturiy ta’minot asosida integratsiyalash imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, o‘zbek tili bo‘yicha +50 mln so‘zli annotatsiyalangan ilmiy-lingvistik korpus yaratiladi, feedback orqali fonetika bo‘yicha AI Speech Analyzer: talaffuzni fonetik spektr bo‘yicha tahlil qilib, xatolarni aniqlanadi, grammatik tahlil va matn generatori: morfologik va sintaktik xatolarni AI yordamida avtomatik tuzatish kiritiladi, o‘qituvchilar uchun analitika paneli: o‘quvchilar faoliyati, rivojlanish dinamikasi, xatolik xaritasi ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tasarrufidagi pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarida sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.